

Tarmoqlarga joriy etishga tayyor bo'lgan ilmiy ishlanmalar taqdimoti

2020-yil 3-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida "Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish borasida oliygoh, ilmiy tashkilotlar, tarmoq va hududlar oldidagi ustuvor vazifalar"ga bag'ishlangan yig'ilishda hudud va tarmoqlarni ilmiy tashkilotlar bilan bog'lash, respublikada ilm-fan samaradorligini oshirish, iqtisodiyotga ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarni keng joriy etish vazifasi qo'yildi.

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 7-9-dekabr kunlari Innovatsion rivojlanish vazirligida ilmiy tashkilotlar tomonidan tarmoqlarga joriy etishga tayyor bo'lgan ilmiy ishlanmalar taqdimoti hamda turli uchrashuvlar o'tkazildi.



Ikki davomida o'tkazilgan taqdimot hamda uchrashuvlarda vazirlik va idoralar, ilmiy tashkilotlar va ilmiy ishlanmalar mualliflari ishtirok etdi.

Taqdimot va uchrashuvlar yakunida tarmoqlarda mavjud muammo va ehtiyojlarni ilmiy tashkilotlarga buyurtma berish va ilmiy ishlarni tijoratlashtirish bo'yicha kelishuvlar bo'ldi.